

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RIZAYEVA GULNORA BOTIROVNA

**KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING
BOSHQARUV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.07 - Ta’limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Rizayeva Gulnora Botirovna

Klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv
madaniyatini rivojlantirish..... 3

Ризаева Гульнора Ботыровна

Развитие управленческой культуры будущих воспитателей на
основе кластерного подхода..... 21

Rizayeva Gulnora Botirovna

Development of management culture of future educators based on the
cluster approach..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

DSc.03/30.01.2020.PED.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RIZAYEVA GULNORA BOTIROVNA

**KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
TARBIYACHILARNING BOSHQARUV MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISH**

13.00.07 - Ta’limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped3070.raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abudlayeva Barno Sayfutdinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muhabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Mustafaqulov Asatulla Asrorovich,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD).

Etakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy, Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2023yil “____” _____dagi ____- raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, ped.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, ped.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, ped.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon oliy ta'lim muassasalarining ustuvor vazifalardan biri bo'lajak tarbiyachilarning boshqarish madaniyatini rivojlantirish, faol, tashabbuskor, nostandart sharoitlarda turli xil muammolarni mustaqil hal qila oladigan mutaxassislar tayyorlash mexanizmlari joriy qilinmoqda. Shu munosabat bilan oliy ta'limning asosiy vazifasi o'qituvchi va talaba o'rtasida shaxsga yo'naltirilgan munosabatlarni o'rnatish, ta'lim oluvchi shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga, uning o'z-o'zini anglashi uchun sharoit yaratish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahonda ilmiy tadqiqot muassasalarida pedagog-tarbiyachilarning ta'lim jarayonining etakchi sub'ekti sifatidagi o'rni bola shaxsini o'zini o'zi anglash uchun sharoit yaratish uchun mo'ljallangan "tashkilotchisi", o'quv jarayonini "boshqaruvchisi"ga o'tkazish, boshqarilayotgan jarayonlarning nazariy asoslari va ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish, ta'limning zamonaviy innovatsion rivojlanishini kuzatib borish, monitoring qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim sifatini oshirish, klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, o'qitish samaradorligini oshirishning didaktik tizimini takomillashtirish ta'limning har bir bosqichining maqsadlarini aniq belgilash, bilimlarni o'zlashtirishning pedagogik mexanizmlarining ishlab chiqishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash¹" ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, didaktik xususiyatlari aniqlashtirish, jarayonni amalga oshirishning tashkiliy modelini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775 son, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

Tadqiqotni respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta‘limni boshqarish, ta‘limda innovatsion boshqaruvni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish, kadrlarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirish masalalari N.Ahmedova, R.X.Djurayev, X.I.Ibragimov, B.IIhomovlar, Sh.E.Qurbonov, S.S.G‘ulomov, M.T.Mirsoliyeva, Y.U.Ismadiyarovlar, M.A.Yuldashevlar; maktabgacha ta‘lim va unda ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalari N.Abdullayeva, G.Djanpeisova, N.Djamilova, B.Djurayeva, K.Mamedov, I.To‘ychieva, D.Sharipova, Sh.Shodmonova, F.Qodirova va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

MDH olimlaridan V.A.Shvandar, V.Y.Zligostev, G.P.Shedrovitskiy, V.F.Rubaxin, A.Fayol, A.V.Filippovlar boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini; A.Gaponenko, L.Zaysev, T.Zub, I.Mazur, A.Pankruxin, S.Popov, A.Porshneva, N.Salomatina, M.Sokolova, R.Fatxutdinov, V.Vesnin tomonidan zamonaviy menejmentni rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. N.N.Ivanova, S.A.Kozlova, A.A.Arushanova, Ye.N.Gerasimova, Ye.A.Vaynbender, T.A.Kulikova maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiya va boshqaruv jarayonlarining ilmiy asoslarini yaratgan.

Xorijiy davlat olimlaridan boshqaruvning amaliy va nazariy masalalari I.Ansoff, R.Daft, P.Druker, F.Kotler, M.Meskon, A.Striklend, A.Tompson, F.Xedouri, D.Hampton, E.Charles, A.Ross, P.Kotler, M.Kotler, B.Baalbaki, H.Shamma, F.Schneider; maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyanuvchilar bilan ishlash masalalari D.Slabe, M.Montessori, S.Sheldon tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining PZ-20170923121 raqamli “Ta‘lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2017-2020 yy.).

Tadqiqotning maqsadi klasterli yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

klasterli yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayonining pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish;

klasterli yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish indikatorlarini takomillashtirish.

klasterli yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatining rivojlanganligini baholash mezonlarini boshqaruv malakasi, mahorat, professionallikni takomillashtirish asosida aniqlashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayoni belgilanib, Qo'qon davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat pedagogika instituti hamda Toshkent davlat pedagogika universitetining 314 nafar respondent-talabalari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarining shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ko'zlangan maqsadlarga erishish va qo'yilgan vazifalar yechimini topish uchun nazariy (tahliliy- sinergetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashirish), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari reflektiv munosabatlar natijadorligini oshirishga qaratilgan tashkilotchilik sifatlarining mohiyatini axborot-konstruktiv texnologiyalarga ko'ra tashkil etish hamda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishning didaktik infratuzilmasini intensiv rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayoni sub'ekt-sub'ekt ijodiy hamkorligining didaktik imkoniyatlaridan ratsional foydalanishga yo'naltirilgan integrallashgan-produktiv hamda ijodiy-refleksiv jarayonlarning ta'lim maqsadlariga adaptiv moslashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modeli aksiologik, gnoseologik va texnologik komponentlarning integrativ integratsiyasini ta'minlash, ijtimoiy-moslashuv, o'z-o'zini baholash va rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartlarni muloqot jarayonlari bilan frontal integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish samaradorligi boshqaruv malakasi va mahoratini oshirishga qaratilgan didaktik mazmunini rivojlantirish hamda istiqbolli ta'limiy vazifalarga mos amaliy harakatlar pedagogik relaksatsiyani shakllantirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatining rivojlanganligini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari ishlab chiqilgan;

“Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik” nomli o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan;

klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlanishiga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Bilish nazariyasi metodologiyasi (bilishning didaktik metodi, o'quv fanlari, tabiat va jamiyat hodisalarining tahlil qilinishiga innovatsion yondashuv) hamda pedagogik ta'lim sohasidagi mamlakatimiz va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchi o'qituvchilarning ishlariga asoslanilganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi

tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan nazariy xulosalar, tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifatini mazmunan boyitishga, fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirishga, klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatining rivojlantirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan fikrlar va innovatsion g'oyalardan oliy ta'lim muassasalarida pedagogik turkum fanlarni o'qitishda, ta'lim-tarbiya mazmunini boyitish, o'quv reja, o'quv dasturlari, darslik, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish, nazariy va amaliy mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etishda foydalanish hamda tarbiyachi-pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ta'lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari reflektiv munosabatlar natijadorligini oshirishga qaratilgan tashkilotchilik sifatlarining mohiyatini axborot-konstruktiv texnologiyalarga ko'ra tashkil etish hamda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishning didaktik infratuzilmasini intesiv rivojlantirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika univesitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2060/04-son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilar boshqaruv madaniyatining reflektiv munosabatlar natijadorligini oshirishga imkon yaratilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish jarayoni sub'ekt-sub'ekt ijodiy hamkorligining didaktik imkoniyatlaridan ratsional foydalanishga yo'naltirilgan integrallashgan-produktiv hamda ijodiy-reflektiv jarayonlarning ta'lim maqsadlariga adaptiv moslashtirishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika univesitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2060/04-son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda klasterli yondashuvning didaktik imkoniyatlari oshirilgan;

klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modeli aksiologik, gnoseologik va texnologik komponentlarning integrativ integratsiyasini ta'minlash, ijtimoiy-moslashuv, o'z-o'zini baholash va rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shartlarni muloqot jarayonlari bilan frontal integratsiyalash asosida takomillashtirishga doir ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli

grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika univesitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2060/04-son dalolatnomasi). Natijada klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modelini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish samaradorligi boshqaruv malakasi va mahoratini oshirishga qaratilgan didaktik mazmunini rivojlantirish hamda istiqbolli ta'limiy vazifalarga mos amaliy harakatlar pedagogik relaksatsiyani shakllantirish asosida takomillashtirishga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan PZ-20170923121 raqamli "Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni amalda bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika univesitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2060/04-son dalolatnomasi). Natijada bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 138 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishning xususiyatlari, bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda klasterli yondashuvning ahamiyati bayon qilingan.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachisining boshqaruv madaniyatiga qiziqish ortishi pedagogika oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining umumiy madaniy va kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablarning ortishi bilan bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rivojlangan jamiyat talablariga mosligini ta'minlash pedagogik boshqaruvning moslashuvchan tizimini yaratishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilari boshqaruv madaniyatini o'rganish natijalarini tahlil qilish, bu sohada

natijalar qoniqarli emasligini ko'rsatdi. Bu ko'p yillar davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarning ta'lim jarayonini boshqarishdagi faoliyati amalda rasmiy ko'rsatmalarni amalga oshirishga qisqartirilganligi bilan bog'liq. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish muammolariga doir turli xil pozitsiyalar, turli xil pedagogik yondashuvlar mavjud emasligi aniqlandi.

Zamonaviy sharoitda pedagogik jarayonning dasturlari, usullari, vositalari va shakllarini tanlash imkoniyati, bir tomondan, maktabgacha ta'lim mutaxassisining ijodiy o'zini o'zi anglashi uchun yo'l ochsa, boshqa tomondan, alohida talablarni qo'yadi. Ya'ni, maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonini boshqarishning kasbiy madaniyati darajasining rivojlanganligi muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda yuzaga keladigan bir qator qarama-qarshiliklar aniqlandi: - ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, turli xil maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik boshqaruv bo'yicha kasbiy faoliyatning o'zgargan shartlari va tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy-pedagogik tizimlarni boshqarishning to'plangan nazariy va amaliy tajribasi bilan bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining boshqaruv madaniyatini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha nazariy va uslubiy asoslarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi.


Tadqiqot davomida quyidagi jixatlar muhimligi aniqlandi: bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari: aksiologik, gnoseologik va texnologik tarkibiy qismlarini shakllanishining yaxlit birligi bilan ifodalanadi; bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bosqichlari jarayon (pedagogik — yo'naltiruvchi, nazariy — tahliliy va kasbiy — ijodiy) sifatida qaraladi, bu maqsadlar, mazmun, vositalarni izchil murakkablashtirishni nazarda tutadi; talabalarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish klasterli yondashuv va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sharoitida amalga oshiriladi, bu ularda pedagogik boshqaruv faoliyati sub'ekti pozitsiyasining namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Boshqaruv ta'limda ikki xil ma'noda qo'llaniladi: kognitiv jarayonni boshqarish, butun o'quv jarayonining boshqarish. Mutaxassis madaniyati - jamiyat sharoitlari va talablariga javob beradigan, muayyan kasbiy muammolarni mazmunli hal qila olishi, yuqori texnologiyalarni yaxshi bilishi, jamiyatning rivojlanish sur'atlariga muvofiq xarakter qila olishi, shu bilan birga, umuminsoniy ustuvorliklarni tushunishga imkon berishiga xizmat qiladi.

Ko'rib chiqilgan tadqiqotlar tahlili pedagogik madaniyatning tuzilishi uni o'rganishning turli darajalarini o'z ichiga olishini ko'rsatdi: ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-pedagogik, kasbiy-pedagogik, shaxsiy (ijtimoiy-boshqaruv, ilmiy-boshqaruv). Pedagogik madaniyat umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo'lib, unda ta'limning ma'naviy va moddiy qadriyatlari, shuningdek, avlodlar almashinuvi, ijtimoiylashuvining tarixiy jarayoniga xizmat qilish uchun zarur bo'lgan ijodiy faoliyat usullari mavjud deb hisoblash mumkin.

Pedagogik madaniyat boshqaruv madaniyatining asosi bo'lib, uni o'rganishga hozirda katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogning boshqaruv madaniyatining alohida

ahamiyati maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvning ikki darajasi mavjudligida namoyon bo'ladi(1-rasmga qarang):



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvning ikki darajasi

Pedagogik boshqaruv — ta'lim jarayonini boshqarishning uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari va texnologik usullari majmuasidir. Har qanday pedagog-tarbiyachi ta'lim va kognitiv jarayonning boshqaruvchisi, rahbar esa butun ta'lim jarayonining boshqaruvchisi sifatida ishtirok etadi. Pedagogik boshqaruv o'quv jarayonini boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan tamoyillar, usullar, tashkiliy me'yorlar va texnologik usullar majmuasi sifatida qaraladi.

Pedagogik boshqaruv madaniyati insoniyatni boshqarish tajribasi bo'yicha mutaxassis tomonidan ma'lum darajadagi mahorat, uning boshqaruv faoliyatidagi mukammallik darajasi, rahbar sifatidagi shaxsning erishilgan rivojlanish darajasi va nihoyat, o'z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga intilishi hisoblanadi. Bu mutaxassisning o'z faoliyatiga munosabatini, uning mohiyatini tushunishni, muassasaning pedagogik jarayonini boshqarishdagi roli va o'rnini, boshqaruvchi kadrlar tayyorlashning tabiatini, boshqaruv faoliyati uslubini, muloqotini, xulq-atvorini, o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Demak, boshqaruv madaniyati psixologik-pedagogik e'tiqod va malakalarning, umumiy rivojlanish va boshqaruvchi-pedagogik fazilatlarining, boshqaruv etikasi va ko'p qirrali munosabatlar tizimi, faoliyat uslubini va xulq-atvorining sintezidir. Boshqaruv madaniyati boshqaruv va pedagogik faoliyat jarayonida uni amalga oshirishning zarur sharti sifatida vujudga keladi va rivojlanadi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida Klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish mazmuni, bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish shart-sharoitlari, klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modeli bayon qilingan.

Tarbiyalanuvchilarning boshqaruv va pedagogik faoliyatining eng muhim xususiyati uning kognitiv tabiati bo'lib, u boshqaruv sub'yektlari faoliyatini refleksli nazorat qilishdan iborat. Boshqaruv madaniyati pedagogik jarayon

sharoitida umumiy madaniyatning o'ziga xos ko'rinishidir. Ammo har doim xam umumiy madaniyatning yuqori darajasiga erishgan har bir mutaxassis boshqaruvchi-pedagogik madaniyatga ham ega bo'lavermaydi.

Boshqaruv madaniyatining mohiyati boshqaruv ongini o'zining ijtimoiy-tarixiy, psixologik va siyosiy elementlari bilan va boshqaruv faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga olgan amaliy hodisalarni o'z ichiga olgan hodisalarning uzviy birligi va o'zaro bog'liqligi sohasida yotadi: 1). Boshqaruv madaniyatini rivojlantirish nazariyasini yaratishning eng muhim uslubiy tamoyili ta'lim tizimini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan boshqaruv sohasidagi qadriyatlarni ishlab chiqarishdir. 2). Boshqaruv madaniyati asosiy tartibga solish funksiyasi bilan ta'minlangan, bu munosabatlarni insonparvarlashtirishdir.


Tarbiyachining boshqaruv faoliyati tarkibida pedagogik, psixologik va gumanitar elementlar mavjud. Bo'lajak tarbiyachining boshqaruv madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak: umuminsoniy axloq normalari tizimi. Bu me'yorlarni ko'p jihatdan umumiyroq me'yorlardan ajratib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ular asos bo'lib, ularsiz aniq, xususiy normalar mavjud bo'lolmaydi; shaxsning ijtimoiy mansubligiga, uning ma'naviy rivojlanish darajasiga, o'ziga xos ijtimoiy roliga mos keladigan nisbiy axloqiy me'yorlar tizimi; axloqiy tuyg'ularning umumiyliigi. Ular boshqaruv normalari, qabul qilingan boshqaruv qarorlari va barcha boshqaruv faoliyatiga yaxlitlik beradi; axloqiy qadriyatlar to'plami. Ular ma'naviy va axloqiy hayotning tarkibiy qismlari sifatida ishlaydi; tarbiyachining axloqiyliigi va u haqidagi bilimlar yig'indisi. U tajribani, insonga, vaziyatlarga, odamlarning imkoniyatlariga, eng tipik shakllar haqidagi g'oyalarni ifodalaydi. U hissiy, ratsional va hissiy komponentlarni birlashtiradi

Boshqaruvda shaxs xususiyatlari yetakchilik qiladi. Tarbiyachining boshqaruv madaniyati boshqaruv xulq-atvori va faoliyati ijodiy tamoyilining integral ko'rsatkichi sifatida barcha tarkibiy qismlarning birligi va o'zaro ta'sirida shakllanadi. Shunday qilib, professional yo'nalganligi va mutaxassisning dunyoqarashi uning kognitiv qobiliyatini, boshqaruv sohasidagi intellektual salohiyatini tavsiflaydi. Qiziqishlar doirasi boshqaruv jarayonida ehtiyojlar darajasini ta'minlaydi. Dunyoqarash shaxsning boshqaruv madaniyatining ijtimoiy yo'nalishini belgilaydi. Ko'nikma va malakalar mutaxassisning fan-amaliy va nazariy boshqaruv tajribasining kengligini belgilaydi.

Ta'limda klasterli yondashuvning ahamiyati tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta'lim turlari o'rtasida o'zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta'minlanishi zarur. Ta'lim klasteri ta'lim turlari va jarayoni ishtirokchilarining o'zaro samarali hamkorlik qilish mexanizmini tashkil qilish ta'lim sifatini oshirish hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilari kompetensiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashga qo'yilgan talablar bo'lajak pedagog-tarbiyachi modelida o'z ifodasini topishi kerak. Bu model bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda yaratilishi lozim. Tadqiqotda klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modeli takomillashtirildi(2-rasmga qarang).

Mazkur model uchta o‘zaro aloqador tarkibiy qismdan iborat: bo‘lajak pedagog-tarbiyachining kasbiy sifatlari; bolalarni rivojlantirishga oid bilimlar majmui; maktabgacha ta‘lim jarayonni tashkil etish uchun zarur ko‘nikma va malakalar tizimi.



2-rasm. Klasterli yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish modeli

Klaster o'z tuzilmalari uchun boshqaruv tizimini moslashuvchan tarzda qurish, real rivojlanish prognozini amalga oshirish, resurslarni o'zaro o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Ushbu tamoyillar maktabgacha ta'lim va pedagogika oliy ta'lim muassasalari integratsiyasini klasterli yondashuv asosida rivojlantirishning, klasterli tashkil etish printsiplarini birlashtiruvchi va o'zaro ta'sir qiluvchi tuzilmalarini maqsad va sharoitlariga bog'liqdir.

Tadqiqotda bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy yondashuv va tizimli yondashuv o'rganilgan. Zamonaviy ijtimoiy fanning va birinchi navbatda, boshqaruv sotsiologiyasining ajralmas qismi ijtimoiy-madaniy yondashuvdir. U odamlarning motivatsiyasi va xatti-harakatlarining eng muhim omillarini aniqlash va o'rganish imkonini beradi, bu jamiyat va madaniyatning organik o'zaro ta'siridir. Tizimli yondashuv ta'lim jarayonida u yoki bu hodisani izohlashga, uning sabablarini topishga ko'maklashadi.

Mutaxassisning boshqaruv madaniyati individual boshqaruv faoliyatida samarali amalga oshiriladigan ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarining butun tizimining etukligi va rivojlanishining ifodasi sifatida tavsiflanadi. Bo'lajak tarbiyachi boshqaruv madaniyatining ko'p qirrali ko'rinishlarini, uning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni tahlil qilib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin: boshqaruv madaniyatining asosiy darajasi boshqaruv bilimlari va shaxsning manfaatlari tizimi bo'lib, axborot bilimlarining keng bazasini shakllantiradi; bo'lajak tarbiyachi boshqaruv madaniyatining dunyoqarash darajasi e'tiqod tizimini shakllantiradi, boshqaruv faoliyati jarayonida manfaatlar, hayotiy imtiyozlar va qadriyat yo'nalishlari asosida shakllanadi. Uning ko'rsatkichi rahbarning mafkuraviy pozitsiyasidir; amaliy faoliyat darajasi - ko'nikma va malakalar tizimi. U boshqaruv tajribasini to'plash va amalga oshirish jarayonida ijtimoiy boshqaruv ehtiyojlari va munosabatlari asosida shakllanadi. Ularning ko'rsatkichi — faoliyatning unumdorligidir; mutaxassisning boshqaruv xulq-atvorini tartibga solish darajasi individual xatti-harakatlar normalari tizimini va boshqaruv faoliyatining o'zlashtirilgan usullarini shakllantiradi. Ular boshqaruv jarayonida mutaxassisning xulq-atvorida, shuningdek, ijodiy faoliyatida amalga oshiriladi; boshqaruv madaniyatining hissiy darajasi ijtimoiy va boshqaruv hissiyotlari tizimidir. U tarbiyachining boshqaruv faoliyati va xulq-atvori jarayonlari tajribasi asosida shakllanadi va shaxsning insonparvarlik yo'nalishida amalga oshiriladi.

Klasterli yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish vazifasi qo'yilib, ta'lim dasturlari va mehnat bozorining real ehtiyojlari, o'quv fanlarining alohida strukturaviy elementlari va uzluksiz kasbiy ta'limga bo'lgan ehtiyoj, hamda ta'lim jarayonining mazmun va motivatsion sohalari orasidagi zilddiyatlar tahlil qilib chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining boshqaruv madaniyatini shakllantirish tizimi berilgan.

Maktabgacha ta'lim mutaxassislarining boshqaruv madaniyatini eksperimental o'rganishimiz asosini bo'lajak tarbiyachilarning boshqaruv madaniyatini diagnostika

qilish usullari tashkil etadi. Bir-birini to'ldiradigan va natijaning ob'ektivligini nazorat qiluvchi usullar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqot davomida didaktik tizimning zarur tarkibiy qismlari aniqlandi, ular bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining boshqaruv madaniyatini shakllantirishning samarali jarayoniga yordam berdi.

1-jadval

Tajriba-sinov ishlari davomida taqdim etilgan materiallar quyidagi bloklardan iborat:

| № | Blok | Yo'nalganligi | Mazmuni |
|---|--------------------------|--|---|
| 1 | Nazariy va uslubiy blok: | Boshqaruvning ilmiy asoslari | Pedagogik boshqaruvning qadriyat ustuvorliklari, boshqaruv tafakkuri evolyusiyasi, pedagogik boshqaruvning insonshunoslikka yo'naltirilganligi. |
| 2 | Amaliy-nazariy blok: | Pedagogik kollektiv boshqaruv asoslari | Boshqaruv psixologiyasi (boshqaruv aloqasi, boshqaruv konfliktologiyasi), boshqaruv pedagogikasi (boshqaruv etikasi), boshqaruv sotsiologiyasi (boshqaruv imidji, boshqaruv valeologiyasi). |
| 3 | Texnologik blok. | Boshqaruvning texnologik samaradorligi | Boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyasi, o'qituvchilar bilan individual ishlash texnologiyasi, o'qituvchilar tarkibini «loyihalash» texnologiyasi, ziddiyatni oldindan ko'rish va bartaraf etish, hokimiyatni oshirish texnologiyasi. Menejerning kasbiy yaroqliligini aniqlash texnologiyasi. |

Ushbu bloklar doirasida talabalarni nizosiz shaxslararo muloqotga, maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik boshqaruv jarayoniga kompleks yondashuvni amalga oshirishga tayyorlash rejalashtirilgan. Shuningdek, ta'limni demokratlashtirish sharoitida rahbarning obro'-e'tiborini oshirish texnologiyasi bilan tanishish va zamonaviy rahbarlik uslubini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot davomida didaktik tizimning zarur tarkibiy qismlari aniqlandi, ular bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining boshqaruv madaniyatini shakllantirishning samarali jarayoniga yordam berdi. Boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini bosqichma-bosqich tashkil etish ushbu tizimning turli jihatlari uchun maqsadlarni belgilash va ularga erishishni nazarda tutadi. Shunday qilib, o'rganilayotgan jarayonda tabiiy ravishda uch bosqich ajratiladi.

Mutaxassisning boshqaruv madaniyatini, pedagogik jarayonni boshqarishda pedagogik o'zaro ta'sirning gumanistik ko'nikmalarini tavsiflovchi ko'nikmalarni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini o'tkazish ob'yektlari sifatida TDPU, QDPI va NavDPI ning 60110300 – Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi ta'lim yo'nalishi talabalari qatnashdi. Tadqiqot ishlari, 60110300 – Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi ta'lim yo'nalishi uchun "Maktabgacha ta'limda boshqaruv va menejment" fani misolida olib borilgan.

Ularda rahbarlik faoliyatiga aksiologik, motivatsion-qadriyat va Gnoseologik komponentlarining ta'sir darajasi o'rganildi va ularning mutaxassisning boshqaruv madaniyatini, pedagogik jarayonni boshqarishda pedagogik o'zaro ta'sirning gumanistik ko'nikmalarini tavsiflovchi ko'nikmalarni rivojlanganlik darajalari sifatida yetarli, maqbul, boshlang'ich darajalar olindi.


2-jadval.

Tajriba-sinov ishlaridagi respodentlar va ularning guruhlardagi qatnashuvchilar soni

| Guruhlar | TDPU | QDPI | NavDPI | Jami |
